

PENSIYA TA'MINOTINING MOLİYAVIY BARQARORLIGIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR

Raxmonov Nuriddin Muxammadjonovich

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

<https://doi.org/10.5281/zenodo.13340468>

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekistonda pensiya ta'minotining moliyaviy barqarorligini ta'minlash va unga tasir etuvchi omillar xususida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Pensiya, moliyaviy barqarorlik, pensiya tizimi, pensiya fondi, pensiya jamg'armasi.

FACTORS AFFECTING THE FINANCIAL STABILITY OF PENSION PROVISION

Abstract. This article talks about ensuring the financial stability of pension provision in Uzbekistan and the factors affecting it.

Key words: Pension, financial stability, pension system, pension fund, pension fund.

ФАКТОРЫ, ВЛИЯЮЩИЕ НА ФИНАНСОВУЮ УСТОЙЧИВОСТЬ ПЕНСИОННОГО ОБЕСПЕЧЕНИЯ

Аннотация. В данной статье рассматриваются вопросы обеспечения финансовой устойчивости пенсионного обеспечения в Узбекистане и факторы, влияющие на это.

Ключевые слова: Пенсия, финансовая устойчивость, пенсионная система, пенсионный фонд, пенсионный фонд.

Milliy pensiya ta'minoti tiziminining moliyaviy barqarorligini ta'minlashda demografik omillar, ijtimoiy sug'urta tizimida aholining munosib ishtirokini ta'minlash hamda pensiya ta'minotini moliyalashtirishda samarasiz vositalar mavjudligi, shuningdek, ijtimoiy sug'urtadagi rag'batlantiruvchi mexanizmlarning zaifligi asosiy omillardan bo'lib maydonga chiqadi.

1. Demografik omillarning pensiya ta'minoti tizimiga ta'siri.

– O'zbekiston aholisining 2018-2025 yillari uchun demografik prognozlariga ko'ra, pensiya yoshidagi aholining ulushi (1,2 mln. kishiga) ko'payishi kutilmoqda,

– 2025 yilga borib, O'zbekistonda aholining o'rtacha umr ko'rish davomiyligi 75,5 yoshga yetadi (2018-yilda 73 yosh), yoshga doir pensiyaga chiqish uchun murojaat qiluvchilarning yillik soni jami 300 ming nafarga ko'payishi kutilmoqda (2017 yilda 206,2 ming nafar), jami aholi tarkibida pensiya yoshidagilarning ulushi 11 foizdan ortadi (2018 yilda 7,4 foiz) [10].

Ma'lumki, 2019 yilning 1 yanvar holatiga O'zbekiston aholisi 33 million 254 ming 100 kishini tashkil etib, 2018 yilning 1 yanvar holatiga nisbatan 597,4 ming kishiga yoki 1,8 foizga o'sdi. Respublika doimiy aholi sonining 30,3 foizi mehnatga layoqatli yoshdan kichiklar, 59,5 foizi mehnatga layoqatli yoshdagilar va 10,2 foizi mehnatga layoqatli yoshdan kattalar hissasiga to'g'ri kelmoqda. Mehnatga layoqatli aholi soni tarkibida iqtisodiy faol aholi soni 14,6 mln. kishini, iqtisodiy nafaol aholi soni 4,6 mln. kishini (o'quvchilar va talabalar – 1,8 mln., dekret ta'tilidagi ayollar – 1,8 mln., uy bekalari – 0,9 mln.). So'nggi 5 yil davomida iqtisodiy faol aholi soni o'sishi (9%)ga qaramasdan, byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga sug'urta badali to'lovchilar soni o'zgarishsiz qolmoqda (5 mln. atrofida – iqtisodiy faol aholining 34 foizi).

Bular, asosan, davlat sektorida, yirik va kichik korxonalarda, shuningdek, jamoat tashkilotlari va mikrofirmalarda mehnat qiluvchilardan iborat.

Tahlil ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, 2030 yilga borib, pensiya yoshidagi aholi ulushi ko'payib, jami aholining 14 foizini tashkil qilishi kutilmoqda. Yoshga doir pensiya tayinlash uchun murojaatlarning asosiy o'sishi tug'ilish darajasi yuqori bo'lgan davrda tug'ilgan fuqarolarning umumiy belgilangan pensiya yoshiga yetishi bilan bog'liqdir. Bunday holat, o'z navbatida, Pensiya jamg'armasi xarajatlarining mutanosib ravishda oshishiga olib keladi hamda pensiya tizimining moliyaviy barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bu esa byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi xarajatlari optimallashtirish zarurligini talab qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010 yil 19 fevraldagi 30-sonli Qaroriga ilova qilingan "O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi to'g'risida"gi Nizomga ko'ra, Pensiya jamg'armasi mablag'lari ishlaydigan va ishlamaydigan fuqarolarga davlat pensiyalarining barcha turlari, zarur ish stajiga ega bo'lmagan keksa yoshdagi va mehnatga layoqatsiz fuqarolarga ijtimoiy nafaqalar, dafn marosimi uchun nafaqalar va boshqa to'lovlar uchun sarflanadi. 2018 yilda byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi xarajatlari 20475,2 mlrd. so'mni tashkil qilib, uning 95,7 foizi ishlamaydigan pensionerlarga, 3,0 foizi ishlaydigan pensionerlarga, 1,2 foizi zarur ish stajiga ega bo'lmagan keksa yoshdagi va mehnatga layoqatsiz fuqarolarga nafaqalar hamda dafn marosimi uchun nafaqalarga, 0,2 foizi boshqa xarajatlarni moliyalashtirishga yo'naltirilgan.

Bizning fikrimizcha, zarur ish stajiga ega bo'lmagan keksa yoshdagi va mehnatga layoqatsiz fuqarolarga beriladigan ijtimoiy nafaqa hamda dafn etish marosimi uchun nafaqalarni to'lash xarajatlarini moliyalashtirishni Davlat byudjeti mablag'lari hisobidan amalga oshirish maqsadga muvofiqdir. Rossiya Federatsiyasida ham zarur ish stajiga ega bo'lmagan keksa yoshdagi va mehnatga layoqatsiz fuqarolarga beriladigan ijtimoiy nafaqa hamda dafn etish marosimi uchun nafaqalar qisman federal byudjetdan moliyalashtiriladi. Qozog'iston Respublikasi Pensiya fondi mablag'lari fuqarolarning pensiyalarini moliyalashtirishga, mehnatga layoqatsiz fuqarolar va keksalarni ijtimoiy himoya qilish dasturlarini amalga oshirishga va boshqa xarajatlarga yo'naltiriladi hamda ijtimoiy nafaqalar qisman davlat byudjeti hisobidan moliyalashtiriladi.

Aksariyat rivojlangan mamlakatlarda zarur ish stajiga ega bo'lmagan keksa yoshdagi va mehnatga layoqatsiz fuqarolarni ijtimoiy jihatdan qo'llab-quvvatlash maqsadida davlat byudjeti hisobidan ijtimoiy nafaqalar beriladi. Umr ko'rish davomiyligi va tug'ilishlar kamayishi butun dunyoda keksa odamlarning ulushini oshiradi va bu ijtimoiy ta'minot tizimlarining, buning ichida pensiya tizimlarining to'lov qobiliyatini pasaytiradi. Shuningdek, hisob-kitoblarga ko'ra, 2018 yil 12 dekabrda "Fuqarolarning pensiya ta'minoti tizimi samaradorligini oshirish va pensionerlarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlashni kuchaytirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5597-sonli Farmoniga asosan jami 533 ming nafardan ortiqroq pensionerlarning pensiya miqdorlari o'rtacha 65 ming so'mdan 265 ming so'mgacha oshgan.

Shundan: 72601 nafari ishlovchi pensionerlardir [11].

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev tomonidan qilingan Oliy Majlisga Murojaatnomada bu sohada ijobiy o'zgarishlar davom etishi, xususan, islohotlarning keyingi bosqichida pensiyani hisob-kitob qilish uchun ish haqining maksimal miqdori bo'yicha

cheklovlar ham butunlay bekor qilinishi ta'kidlangan. Albatta, bunday holatlar kelgusida pensionerlarning pensiya miqdorlari oshishiga va munosib turmush sharoitlarining yanada yaxshilanishiga xizmat qiladi.

2019 yil 1 yanvar holatiga O'zbekiston Respublikasida jami 3485,8 ming nafar pensiya va nafaqa oluvchilar mavjud.

Yuqoridagi holatlar Pensiya jamg'armasining moliyaviy barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi va pensiya ta'minoti tizimida xarajatlarning ortishiga olib keladi. Qayd qilish joizki, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining o'z guruhida bir pensionerga to'lovlar bo'yicha oxirgi o'ringa ega va Pensiya jamg'armasi mablag'larining miqdori mamlakatning barcha pensionerlarini to'liq qoplash uchun yetarli emas va bunday holat Pensiya jamg'armasining davlat byudjeti hisobidan mustaqilligini ta'minlashga imkon bermaydi.

Milliy pensiya ta'minoti tiziminining moliyaviy barqarorligini ta'minlashda demografik omillar, ijtimoiy sug'urta tizimida aholining Ijtimoiy sug'urta tizimini moliyalashtirishda aholining mutanosib ishtirokini ta'minlash zarurligi:

- fuqarolarning ijtimoiy sug'urta tizimida uzluksiz va uzoq muddatli ishtirokini rag'batlantirish mexanizmlarining murakkabligi va shaffof emasligi;

- mehnatga layoqatli aholining deyarli 60 foizi (tahminan 10,2 mln. kishi) pensiya ta'minoti tizimiga qamrab olinmaganligi, ularning aksariyatini norasmiy sektorda band bo'lganlar va mehnat migrantlari tashkil etishi;

- 2009-2017 yillar oralig'ida pensionerlar sonining ishlovchi aholiga nisbati 61 foizdan 66 foizga o'sganligi.

Ushbu omillar kelgusida o'rta va uzoq muddatli istiqbolda pensiya ta'minoti tizimiga badal to'lamagan fuqarolarning aksariyati pensiya olish huquqiga ega bo'lmazligi holatini yuzaga keltiradi. Buning natijasida, birinchidan, byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining moliyaviy mablag'larining kamayishiga, ikkinchidan, fuqarolarning keksayganda turmush farovonligining yomonlashuviga olib kelishi mumkin.

3. Moliyaviy mablag'larni taqsimlashdagi samarasiz vositalar va ijtimoiy sug'urtadagi rag'batlantiruvchi mexanizmlarning zaifligi:

- byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi mablag'larining sezilarli qismi imtiyozli pensiyalarni moliyalashtirishga sarflanmoqda. 2017 yilda imtiyozli shartlarda tayinlangan pensiyalar ulushi 592,4 ming kishini yoki jami tayinlangan pensiyalarning 19,5 foizni tashkil etib, shundan, yoshga doir pensiyalar 23,7 foizni tashkil etgan. Yiliga o'rta hisobda 39,8 mingta imtiyozli shartlardagi pensiyalar tayinlanmoqda. Shu bilan birga imtiyozli pensiyalarning o'rtacha miqdori yoshga doir pensiyaning o'rtacha miqdoridan yuqoridir[14];

- pensiya miqdori va xodimning mehnat davomiyligi ulushi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik ham sezilarsiz. Amaldagi pensiya ta'minoti tizimi, 7 yildan kam bo'lmagan stajga ega bo'lgan shaxslarga pensiya tayinlanishini nazarda tutadi. Ish stajiga nisbatan 7 yil davomiylidagi minimal talabning mavjudligi fuqarolarning davlat ijtimoiy sug'urtasidagi ishtirokida salbiy ta'sir o'tkazmoqda. Masalan, hozirgi vaqtda ish haqining o'rtacha darajasida 30 yil ish stajiga (talab etilgan – 25 yil) ega bo'lgan erkak kishining pensiya miqdori bilan 10 yillik ish stajiga ega bo'lgan (minimal talab etilgan – 7 yil) erkak kishining pensiya miqdori o'rtasidagi farq taxminan

200 ming soʻmni tashkil etadi;

– ishlovchilarning ijtimoiy sugʻurtadagi uzoq muddat va uzluksiz ishtirokini ragʻbatlantirishdagi zaif mexanizmlar, ularni, sugʻurta badallarini toʻlamaslikning yangi usullarini qidirishga majbur etadi.

Maʼlumki, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 12 dekabrda qabul qilingan “Fuqarolarning pensiya taʼminoti tizimi samaradorligini oshirish va pensionerlarni ijtimoiy qoʻllab-quvvatlashni kuchaytirishga oid qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida”gi PF-5597-sonli Farmoni asosida 2019 yil 1 yanvardan pensiyani hisob-kitob qilish uchun ish haqining maksimal miqdori eng kam oylik ish haqining sakkiz barobaridan oʻn barobarigacha oshirildi. Olib borilgan ilmiy tadqiqotlar shuni koʻrsatadiki, pensiyani hisoblab chiqarishda belgilangan eng kam oylik ish haqining 10 barobari fuqarolarning davlat pensiya taʼminoti tizimidagi ishtirokiga, jumladan, fuqarolarning mehnat faoliyatining davomiyligini taʼminlash va yuqoriroq miqdorda ish haqi oluvchilarni ragʻbatlantirishga salbiy taʼsir koʻrsatadi. Shundan kelib chiqib, istiqbolda ushbu cheklovni ham bekor qilish maqsadga muvofiqdir. Bunday holat pensiya miqdori va xodimning mehnat hissasi oʻrtasidagi oʻzaro bogʻliqlikni oshirish imkonini beradi, shuningdek, mehnat faoliyatini yanada ragʻbatlantiradi.

Ishlovchi er (xotin)ning mehnatga haq toʻlash koʻrinishidagi daromadlari hisobidan ishlamayotgan turmush oʻrtogʻi uchun ixtiyoriy ravishda Pensiya jamgʻarmasiga sugʻurta badallari toʻlash huquqini taklif etish maqsadga muvofiq. Er(xotin) ishlamayotgan turmush oʻrtogʻi uchun Pensiya jamgʻarmasiga ixtiyoriy sugʻurta badallari toʻlash tizimi dunyoning koʻplab davlatlarida mavjud. Misol uchun, Buyuk Britaniyada pensiya olish uchun 35-40 yillik mehnat staji talab qilinadi, minimal pensiya olish uchun eng kamida 10-15 yillik mehnat staji boʻlishi talab etiladi. Agar fuqarolar talab qilingan mehnat stajiga ega boʻlmasalar, pensiya olishlari va uning miqdorini oshirishi uchun davlat ijtimoiy sugʻurta fondiga ixtiyoriy ravishda sugʻurta badallari toʻlashi mumkin. Yuqoridagi barcha holatlar, oʻz navbatida, Oʻzbekiston Respublikasi pensiya tizimini isloh qilish, pensiya tizimining moliyaviy barqarorligini taʼminlash zarurligini koʻrsatadi.

1. Rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarning pensiya taʼminoti tizimi tajribalaridan kelib chiqib hamda pensiya taʼminotining moliyaviy barqarorligini taʼminlash maqsadida byudjetdan tashqari Pensiya jamgʻarmasi mablagʻlari hisobidan toʻlanuvchi nafaqalarni (zarur ish stajiga ega boʻlmagan keksa yoshdagi va mehnatga layoqatsiz fuqarolarga beriladigan nafaqa hamda dafn etish marosimi uchun nafaqa) Davlat byudjeti mablagʻlari hisobidan amalga oshirish zarur. Mazkur taklifni amaliyotga qoʻllash natijasida byudjetdan tashqari Pensiya jamgʻarmasining yiliga oʻrta hisobda 237,7 mlrd. soʻm miqdoridagi mablagʻlarini iqtisod qilishga va uning moliyaviy barqarorligini taʼminlashga xizmat qiladi.

2. “Fuqarolarning davlat pensiya taʼminoti toʻgʻrisida”gi Qonunni yangi tahrirda ishlab chiqish, bu borada chet el tajribasini oʻrganish hamda mamlakatimizning demografik va ijtimoiy-iqtisodiy jihatlarini inobatga olish, qonunning normalarida fuqarolarning pensiya miqdorlari ularning mehnat stajlari davomiyligi va ish haqiga bogʻliq boʻlishi hamda ijtimoiy sugʻurta tizimiga faol qatnashishlarini ragʻbatlantiruvchi mexanizmlarini joriy etish maqsadga muvofiqdir. Mazkur taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida pensiya taʼminoti tizimining huquqiy-meʼyoriy bazasini takomillashtirish, qonunchilikda toʻgʻridan-toʻgʻri taʼsir etuvchi

normalarni joriy qilish, pensiyalarni hisoblashning sodda va shaffof hamda rag‘batlantiruvchi xarakterdagi mexanizmlarni joriy qilish, ijtimoiy adolat prinsiplarining ta‘minlanishiga erishish imkonini beradi.

3. Mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti, aholi bandligi, ish o‘rinlari yaratilishi, aholining o‘rtacha umr ko‘rish davomiyligining oshib borishi, tibbiyot sohasining taraqqiyoti kabi omillarni hisobga olgan holda istiqbolda pensiyaga chiqish yoshini bosqichma-bosqich oshirib borish, bunda fuqarolarning pensiyaga chiqish huquqini olishlari uchun mehnat staji va pensiya yoshiga bo‘lgan talabni qayta ko‘rib chiqish talab etiladi. Mazkur taklifning joriy etilishi natijasida ish stajiga mutanosib ravishda pensiya miqdorlarini oshirish hamda pensiya ta‘minoti tizimining muvozanatlashgan holdagi moliyaviy barqarorligini yaratadi.

4. Istiqbolda fuqarolarni kafolatlangan pensiya ta‘minoti bilan qamrab olish maqsadida ishlovchi shaxslarga mehnatga haq to‘lash ko‘rinishidagi daromadlari hisobidan Pensiya jamg‘armasiga ishlamayotgan oila a‘zolari uchun ixtiyoriy ravishda har bir oy uchun eng kam oylik ish haqi miqdorida qo‘shimcha sug‘urta to‘lovlari (badallari) to‘lash huquqini berish maqsadga muvofiqdir. Mazkur taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida fuqarolarning pensiya sug‘urtasi tizimi bilan qamrab olish darajasi oshiriladi va Pensiya jamg‘armasining moliyaviy barqarorligi yaxshilanadi.

REFERENCES

1. Qosimova G., Botirov A. Jamg‘arib bo‘lingan pensiya ta‘minoti. Monografiya. – T.: “Tamaddun”, 2015. – 108 b.
2. Vahobov A., Majidov N. Jamg‘arib boriladigan pensiya jamg‘armasining o‘z biznesida investitsiya siyosatini amalga oshirishdagi roli. Monografiya. – T.: “Universitet”, 2017. – 128 b.
3. Qosimova G., Sholdarov D. Pensiya ta‘minotini boshqarish. Monografiya. – T.: “TMI”, 2017. – 225 b.